

**LOGISTIK TRANSPORT TIZIMLARIDA YUKLARNI YETKAZIB BERISHNI  
LOYIHALASHTIRISH.**

Egamberganov Isobek Hamdambek o'g'li

Jizzax politexnika instituti

Transport fakulteti transport vositalari muhandisligi

Yo'nalishi 101-22 guruh talabasi

egamberganovisobek0@gmail.com

*Annotatsiya : Ushbu maqola logistika sohasida buyurtmachilarni yuklarini behavotr va bezarar yetkazib berishni va vaqtida olib borishni loyihalashtitishdan iborat.*

*Kalit So'zlar:Yuklarni yetkazib berishdagi qo'yiladigan qonun-qoidalar,*

Yuklarni yetkazib berish tizimi qatnashchilari, Ekspeditorlar, Tashish jarayonining tashkilotchisi, Yuklarni o'z vaqtida yetkazib berishni loyihalashtirish,Intermodal va multimodal tashishlarda ishtirok etuvchi transport vositalari.

Buyurtmachining talablari va asosiy hamkorlar haqidagi axborotlar asosida operator(yukni yetkazib berish bilan shug'ullanadigan firma) tashish rejalarini ishalb chiqar ekan,tashish sxemasini,maxsus ekspeditorlik,yoki transport firmalarini tanlaydi.Ishlab chiqilgan yukni yetkazib berish rejalaridan biri mijozning buyurtmalari bilan taqqoslash orqali tanlanadi. Buyurtmachining talablari hamda o'zining asosiy sheriklari(partner) haqida tezkor ma'lumotlaar asosida firmaning dispatcher-operatori yetkazib berishning bir nechta variantlariniishlab chiqadi,tashish sxemasini va provayderlarni,shu bilan birga tanlangan tashish sxemasiga qarab tashishga jallb etish mumkin bo'lgan maxsus exspeditorlik va transport firmalarini aniqlaydi. Rasmiylashtirilgan buyurtma operator tomonidan nafaqat tashishni rejalashtirishda, balki mijozlar bilan ishslash hisobini olib borishda ham foydalilanadi.Tuzilgan shartnomaga ko'ra firma tashish jarayonlarini,ekspeditorlik va boshqa xizmatlarni bajarish bo'yicha barcha javobgarliklarni o'z zimmasiga oladi. Yuklarni yetkazib berish tizimlarining o'ziga xos xususiyatlaridan biri-ularning ko'p variantligidir.Hozirda yuklarni yetkazib berishda ishtirok etuvchi korxonalarning soni ortib bormoqda.Bu esa o'z navbatida yuklarni yetkazib berish variantlarini ortib ketishiga olib keladi.,,Yuklarni yetkazib berish”materillani yetkazib berish,taxlash,saqlash,o'rab-chirmash,yiriklashtirish hamda har xil transport vositasida tashish operatsiyalarini o'z ichiga oladi.Bunga yana mashrutni tanlash,harakat grafigini tuzish kabilar ham kiradi.Bu operatsiyalarning asosiy maqsadi ishlab chiqarish va istemolchi orasidagi xududiy ayriliqlarni bartaraf etishdir.Transport texnologik jarayon sanab o'tilgan operatsiyalarini ketma-ketbajarilishi va yukni yetkazib berishning yagona tizimini tashkil etar ekan,uning asosiy maqsadi mijozlarning yuklarni yetkazib berishga qo'ygan talablarini qondirishga qaratilgan.Yuklarni yetkazib berish bo'yicha konkret buyurtmani bajarayotganda firma operatori yetkazib berish sxemasini aniqlashi transport va notransport operatsiyalar va tashishda ishtirok etuvchilarni ro'yxatini anqilaydi.Expeditorlar-tashish jarayonida har xil turdag'i transport vositalari

qatnashib bir-birini to'ldiradi.Tashish jarayoni bajarishda barcha qatnashchilarning xatti-harakatlari muvofiqlashtirigan bo'lishi kerak. Tashish jarayonini tashkil etishda ekspeditor jismoniy yoki yuridik shaxs sifatida vositachi vazifasini bajarib yuklarni o'z nomidan transportirovka qiladi.Transport-ekspeditsiya xizmatlari yuklarni ishlab chiqaruvchilardan istemolchiga yetkazish jarayonining tarkibiy qismi hisoblanadi. Ekspeditorlar tashish jarayonining asosiy tashkil etuvchisi sifatida yuklarni o'z vaqtida va eng sarf-harajatlar bilan eshikdan eshikkacha tashib berishni ta'minlashi kerak.Ekspeditorlik faoliyatini to'g'ri tashkil etish transport ishining unmdorligini 20-30% gacha oshirish mumkin.

Izlanishlar shuni ko'rsatadiki, Germaniyada avtomobilarda tashishning 80%i ekspeditorlar orqali amalga oshirilar ekan.

Transport-ekspeditorlik korxonalari har xil xizmatlarni bajaradi:

1)tiyorat-huquqiy xarakterdagи xizmatlar:

- tezlik,qulaylik va tashish sharti narxi bo'yicha ratsional transport turini tanlash;
- tashish shartlarini yuk qabul qiluvchi va jo'natuvchilarga tushuntirish, tovarlarning oxirgi narxini kalkulyatsiya qilishga ko'maklashish;
- tashuvchilar bilan shartnoma tuzish;

2)tezkor ishlab chiqarish xarakterdagи xizmatlar:

- yuk egasi ko'rgan zararlarni undirib olish maqsadida tushuvchi va qabul qilib oluvchilardan yuklarni yetkazib berish davrida aniqlangan nuqsonlar dalolatnomasini olish;

-transport korxonalari va yuk egalari bilan hisob-kitob ishlarini bajarish;

2)tezkor ishlab chiqarish xarakterdagи xizmatlar:

-kichik partiyadagi yuklarni tanlash butlab kata partiyalar holatga keltirish;

-yuk jo'natuvchining omboridan yukni ortish yoki ortish-tushirish punktiga yoki ortish-tushirish punktlarida yuklarni bir transport bir transport omboridan boshqa transport omboriga yetkazib berish.

Ekspeditor,xalqaro tashish operatori yoki transport-logistik firma operatorining asosiy vazifasi yetkazib berish jarayoni loyihalash va tizimdagи barcha ishtirokchilarning ishini muvofiqlashtirishdan iborat.Bu esa o'z navbatida yuk jo'natuvchi va qabul qiluvchilarni yukni yetkazib berish ishlari bilan bog'liq barcha masalalardan ozod etadi. Ma'lumki yuklarni o'z vaqtida yetkazib berish logistic tizimlar faoliyatining asosiy mezonlaridan biri hisoblanadi.Yuklarni yetkazib berish vaqtida tasodify bo'lib juda ko'p omillar ta'sirida shakllanadi.Yuklarni yetkazib berishda transport-texnologik jarayonlar bir qancha bosqichlardan tashkil topgan. Yuklarni yetkazib berish vaqtida har bir bosqichda qanday tashkil etilishiga bog'liq.Transport xizmatini ko'rsatish tizimini jarayonlarini ketma-ket yoki parallel ravishda bajariluvchi elementlar jarayonlardan iborat tuzilma ko'rinishida ifodalash mumkin.

Transport logistikasi transport ishlab chiqarish,ta'minot, sotish ishlarining integratsiyasi hamda moddiy oqimlar harakatini optimal variant bo'yicha tashkil etishga asoslanadi.

Bugungi kunda transport korxonalari o'z faoliyatini qayta ko'rib chiqishlari va uni iste'molchilar talabini qondirishga qaratishlari kerak.Ishlab chiqaruvchilar o'z tovarlarini sotishda ularni olib borib berish transport vositasining turini tanlash va tashishni tashkil etish kabi masalalarni yechishlari kerak.

Bilamiz hozirgi knda o'zbekiston respublikasida eng arzon transport turi bu temir yo'l transporti hisoblanadi.Biz hozirgi kunda dengizga yoki okeanga chiqishga imkonimiz yo'qligi bu bizning bir taraflama iqtisodiyotimizga salbiy tasir ko'rasatadi, qanday deyishiz mumkin-agarda bizda dengizga chiqishga imkon bo'lganda edi biz turli xil tovarlarni turli davlatlardan hozirgi kunda havo transportidan yoki temir yo'l transportidan foydalanib olib kelamiz.Havo transprtini biz uchun eng qimmatga tushadigan transport turlaridan hisoblanadi.Agar biz havo transportidan tashiydigan yuklarimizni suv transportidan amalga oshirsak bu bizga har tamonlama arzonga tushadi.Masalan yoqilg'I va yuklarni sig'imi va ularni olib kelishdagi bir davlatdan ikkinchi davlatga kirgandagi rastamoshkalarini.Endi bularni teskari yani bizga ozgina salbiy tomonini ham aytib o'tishimiz kerak,agar biz suv transportidan foydalansak bunda biz buyurtma qilgan buyurtmalrimiz kecikib kelishi mukin shu taraflama suv transportida qiyinchilik bor. Hozirgi kunda logistikaning turli xil soxalari yuk tashishga mo'ljallangan soxalari rivojlanyabdi.Bu birga davlarlar o'rtasida ko'plab shartnomalar imzolanib ularning iqtisodiyotiga ham juda yaxshi natija ko'rsatadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

- 1.E.Karimov avtotransport vositalarida yuk tashish va avtotransport logistikasi.
- 2.Bozorov.I.N., Omonov,AA.,Daliyev, SHA.K Transport logistikasi,Oliy o'quv yurtlari uchun qo'llanma.
- 3.O.R.Yusupov Samarqand davlat universiteti „dasturiy injiniring kafedrasi mudiriPHD.
- 4.D.K.yakubjanova-Toshkent axborot texnologiyalar universiteti Samarqand filiali direktori o'rinnbosari,logistikaning yuk tashish tizimlari.
- 5.Tohirovich,Q.N., Logistikada raqamli texnologiyalarni joriy etish va ulardan foydalanishning dolzarbliji”.
- 6.Shahrinoz Avazxonovna., Mahsulot tannarxini hisobiga olishda boshqaruv hisobini takomillashtish”
- 7.Q.N KHATAMOVNA Current assets and their role in company activity.Journal of marketing and Emerging Economics.